

## KIMYOVIY FORMULA, VALENTLIK, INDEKS HAQIDA TUSHUNCHALAR

Sattorova Sharofat Ashakova

Qashqadaryo viloyati G'uzor tumani

Maktabgacha va Maktab Ta'lif Bo'limiga qarashli

28-maktab Kimyo fani o'qituvchisi

**Anotatsiya:** Mazkur maqolada kimyoviy formulalar, valentlik, indeks haqida ma'lumotlar va tushunchalar berishda tashqari .Har biri haqida to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Kimyoviy formulalar, valentlik, indeks, kislород, vodorod, elementlar, natriy sulfat, natriy, oltingugurt.

**Annotation:** In addition to giving information and concepts about chemical formulas, valence, and index, this article discusses each.

**Key words:** Chemical formulas, valency, index, oxygen, hydrogen, elements, sodium sulfate, sodium, sulfur.

**Аннотация:** Помимо предоставления информации и понятий о химических формулах, валентности и индексе, в этой статье обсуждается каждая из них.

**Ключевые слова:** Химические формулы, валентность, индекс, кислород, водород, элементы, сульфат натрия, натрий, сера.

### Kimyoviy formulalar nima.?

**Kimyoviy formula** — moddalarning sifat va miqdor jihatidan tarkibi va tuzilishini kimyoviy belgilar, shuningdek, sonlar, harflar va boshqa bilan berilgan ifodasi. Kimyoviy formulalar modda qanday elementlardan tashkil topganligi, bu elementlar o'zaro qanday nisbatda birikkanligini hamda moddaning tuzilishini ko'rsatadi. Masalan, suvning formulasi H<sub>2</sub>O uning tarkibi vodorod (H) va kislород (O) dan iborat ekanligini, bu elementlar 2:1 nisbatda birikkanligini; natriy sulfat Na<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> esa uning molekulasi natriy (Na), oltingugurt (S) va kislород (O)dan tashkil topganligini, bu elementlar 2:1:4 nisbatda birikkanligini; aluminiy sulfid A<sub>12</sub>S<sub>3</sub> esa 2 atom aluminiy (A<sub>1</sub>) ga 3 atom oltingugurt (S) to'g'ri kelishini ko'rsatadi (yana qarang Kimyoviy belgilar).

Kimyoviy formulalar uch xil bo'ladi: empirik, ratsional va struktura formulalar. Empirik formulalar modda molekulasidagi atomlarning umumiyl sonini ko'rsatadi. Mas, sulfat kislota H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>, etan S<sub>2</sub>N<sub>6</sub>, etil spiriti S<sub>2</sub>N<sub>6</sub>O va hokazo Ratsional formulalarda ma'lum sinfga kiruvchi atomlar guruhi ajratib ko'rsatiladi. Masalan, etan SN<sub>3</sub>SN<sub>3</sub> yoki SN<sub>3</sub>—SN<sub>3</sub>, etil spiriti S<sub>2</sub>N<sub>5</sub>ON yoki S<sub>2</sub>N<sub>5</sub>—ON va h.k. Struktura formulalar esa moddaning tarkibini, molekuladagi atomlarning joylashish

tartibini hamda ushbu atomlar orasidagi kimyoviy bog'larning qanday taqsimlanganligini ko'rsatadi.

**Valentlik** (lotincha: valentia — „kuch“) — ma'lum element atomining boshqa element atomi bilan kimyoviy bog' hosil qilib birlashish yoki almashish xususiyati. Valentlik tushunchasini fanga 1852-yilda Edward Frankland kiritdi. Rus kimyogari A. M. Butlerov kimyoviy tuzilish nazariyasini kashf qilishida valentlik muhim rol o'ynadi. Dmitriy Mendeleyev elementlarning davriy sistemadagi o'rni bilan valentlik O'rtasida bog'lanish borligini isbotladi hamda o'zgaruvchan valentlik tushunchasini kiritdi. 1897-yil elektronlar ochilishi bilan valentlikning elektron nazariyasiga asos solishga harakat qilindi (ingliz fizigi J. J. Thomson). Nemis fizigi valentlik Kossel nazariyasiga (1916) muvofiq, elementlar yoki elementlar guruhi o'zaro birikkanda bittasi elektron beradi, ikkinchisi esa bu elektronni qabul qilib oladi. Berilgan elektron soniga qarab musbat valentlik, qabul qilib olingan elektron soniga qarab manfiy valentlik deb aytildi. Shunga ko'ra, natriy musbat bir, xlor esa manfiy bir valentlikka ega. Lekin elementlar kovalent bog' hosil qilib birikkanda elektron bermaydi va biriktirmaydi. Amerikalik fizik-kimyogar Gilbert N. Lewis nazariyasi bo'yicha valentlik element atomlari elektron jufti — kovalent bog' hosil qilish uchun bergen elektronlar soniga teng. Valentlik Kossel va Gilbert N. Lewis nazariyalari valentlik mohiyatini to'la ochib bermadi. Atomning kvant mexanikasi nazariyasi yuzaga kelgach (1926), valentlikning mohiyati oydinlashdi. Bu nazariyaga muvofiq, valentlik juftlanmagan (yakka) elektronlar soniga teng. Masalan, ishqoriy metallar atomining tashqi elektron qavatida bitta elektron bor. Shunga ko'ra ular bir valentlikdir. Ba'zi atomlarda juftlanmagan elektronlar reaksiya jarayonida hosil bo'ladi. Masalan, uglerod atomining tashqi qavatida juftlanmagan ikkita elektron bor. Reaksiya paytida juftlangan ikki elektron yakkalashib, juftlanmagan ikkita elektron beradi. Shunday qilib, juftlanmagan elektronlar soni to'rttaga yetadi. Ba'zan atomlar ta'sirlanib boshqa valent holatiga o'tishi, bitta elektronni boshqa atomga berishi yoki boshqa bir atomning elektronini biriktirib olishi mumkin.

**Indeks** (Lotincha: index — ko'rsatkich, ro'yxat) — nom, ism yoki boshqa kombinatsiyalar ko'rsatkichi va ro'yxati hisoblanadi. Shuningdek, indeks, shartli ifodalar (harfli, raqamli) tizimi, bibliografik, nashriyot, kitob savdosi, pochta, oziq-ovqat mollari, dorilarning chiqarilgan vaqt va saqlash muddatini ifodalashi ham mumkin. Indeks matematikada esa ifodalarni bir-biridan farq qilishi uchun ularning yoniga yoziladigan belgilar — son yoki harflardir: Masalan, a, ar x5, xp, u1, u' (bunda: 1, i, 5, n, j — indekslar). Sonlar nazariyasi va boshqa sohalarda ham maxsus Indeks tushunchasi bor



**Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati :**

- 1.[https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Kimyoviy\\_formulalar](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Kimyoviy_formulalar)
- 2.[https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Valentlik#:~:text=Valentlik%20\(lotincha%3A%20valentia%20%E2%80%94%20%E2%80%9E,1852%2Dyilda%20Edward%20Frankland%20kiritdi](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Valentlik#:~:text=Valentlik%20(lotincha%3A%20valentia%20%E2%80%94%20%E2%80%9E,1852%2Dyilda%20Edward%20Frankland%20kiritdi)
- 3.<https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Indeks>

